MINTAQADA MAHALLIY BUDJET SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Xudoyqulov Hamidjon Abdullayevich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Biznes va boshqaruv kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21457218

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqada mahalliy budjet samaradorligini oshirish zaruriyati va mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib omillari hamda ularning ta’siri yoritilgan. Shuningdek, mintaqa sharoitida mahalliy budjet samaradorligini oshirishga qaratilgan omillarni tadqiq qilish yuzasidan xulosa va mualliflik fikrlari keltirilgan.*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются факторы и их влияние, исходя из необходимости и существующих возможностей повышения эффективности местного бюджета в регионе. Также представлены выводы и мнение автора об изучении факторов, направленных на повышение эффективности местного бюджета в региональном контексте.*

Abstract*. This article discusses the factors and their impact, based on the need and existing opportunities to increase the efficiency of the local budget in the region. It also presents conclusions and author's opinions on the study of factors aimed at increasing the efficiency of the local budget in the regional context.*

Kalit so‘zlar. *Mintaqa, budjet, mahalliy budjet, samaradorlik, omil, xarajat, rejalashtirish.*

Ключевые слова*. Регион, бюджет, местный бюджет, эффективность, фактор, затраты, планирование.*

Key words*. Region, budget, local budget, efficiency, factor, cost, planning.*

Mahalliy budjetlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim moliyaviy mexanizm bo‘lib hisoblanadi. Bu borada budjet samaradorligi hudud aholisining turmush darajasi, infratuzilmaning rivojlanishi, ijtimoiy xizmatlar sifati hamda iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, mahalliy budjet mablag‘laridan oqilona va maqsadli foydalanish, budjet daromadlarini oshirish hamda xarajatlar samaradorligini ta’minlash har bir mintaqaning ustuvor vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

Budjet xarajatlari bilan bog‘liq muammolar milliy darajada hamda mintaqaviy va shahar darajalarida davrning jiddiy muammolaridan biridir [1]. Ularning doimiy ravishda o‘sib borishi iqtisodiy inqirozning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Bu boradagi tadqiqotlarda mintaqaviy budjet siyosatini takomillashtirish yo’llari va raqobatbardoshlikning asosiy jihati sifatida mahalliy budjet jarayonini kuchaytirishning asosiy vositalari ko‘rib chiqiladi [2]. Ya’ni, bu tadqiqotda mahalliy budjetlardan samarasiz foydalanish sabablari tavsiflanib, mahalliy moliya organlari tomonidan budjetlashtirish amaliyotini qo‘llash orqali mahalliy budjetlardan samarali foydalanishni ta’minlash choralari taklif qilingan.

Boshqa xil tadqiqotlarda esa mahalliy budjetlar daromad bazasini shakllanishining ilmiy-amaliy asoslari yoritib berilgan. Ya’ni, unda hududlar iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish orqali mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash imkoniyatlari asoslangan [3]. Undan tashqari, yana bir tadqiqotlarda esa mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlar

ahamiyatini oshirish va hokimiyat organlarining budjet salohiyatini mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Unga asosan, mahalliy budjet daromadlarining konseptual asoslarini chuqur o‘rganish va ularning barqarorligini ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi asoslangan [4]. Tadqiqotlar asoslashicha, ko‘pgina mintaqalarning budjet salohiyatini shakllantirish soliq to‘lovchilarning cheklangan doirasining moliyaviy natijalari va korporativ xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu esa budjet daromadlarining tarmoq tarkibining o‘ziga xos xususiyatlari va budjetni tashkil etuvchi tarmoqlar va korxonalarning mavjudligi bilan izohlanadi [5].

Avvalo, mintaqada mahalliy budjet samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lib budjet daromadlari bazasini kengaytirish hisoblanadi. Chunki, budjet daromadlarining asosiy qismi mahalliy soliqlar va yig‘imlar, davlat mulkidan foydalanishdan tushadigan tushumlar hamda boshqa manbalar hisobiga shakllanadi. Hududda tadbirkorlik sub’ektlari sonini ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish orqali soliq tushumlarini oshirish mumkin. Bu esa mahalliy budjetning moliyaviy mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mahalliy budjet samaradorligini oshirishda xarajatlarni rejalashtirish va boshqarish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Budjet mablag‘larini taqsimlashda natijadorlik va manzillilik tamoyillariga amal qilish zarur. Har bir xarajatning ijtimoiy va iqtisodiy samarasi baholanishi va mablag‘lar eng ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirilishi lozim. Bu bo‘yicha ta’lim, sog‘liqni saqlash, kommunal xizmatlar va transport infratuzilmasini rivojlantirishga ajratilayotgan mablag‘lardan samarali foydalanish aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish ham mahalliy budjet samaradorligini oshirish omili bo‘lib hisoblanadi. Elektron budjet tizimlari orqali budjet jarayonlarining shaffofligi ta’minlanadi, moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilish imkoniyati kengayadi va korrupsiya xavfi kamayadi. Bu orqali raqamlashtirish budjet mablag‘larining harakatini real vaqt rejimida kuzatish va nazorat qilish imkonini beradi.

Mahalliy budjetlarni boshqarishda ochiqlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Budjet mablag‘larining shakllanishi va sarflanishi haqidagi ma’lumotlarning aholi uchun ochiqligi fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshiradi. Fuqarolar tashabbusli budjeti, jamoatchilik eshituvlari va muhokamalari mahalliy budjet mablag‘laridan samarali foydalanishga imkon beradi.

Mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish ham mahalliy budjet samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Unga asosan, chet el va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish va qo‘shimcha soliq tushumlarini ta’minlash imkonini beradi. Natijada, mahalliy budjet daromadlari ko‘payib, hududning iqtisodiy salohiyati mustahkamlanadi.

Kadrlar salohiyatini oshirish mahalliy moliyani boshqarish tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi. Budjet tashkilotlari xodimlarining moliyaviy boshqaruv, strategik rejalashtirish va tahlil sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish budjet mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Zamonaviy boshqaruv usullarini qo‘llay oladigan mutaxassislar mahalliy budjetlarning barqarorligi va natijadorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, mahalliy budjetlarni shakllantirish va ijro etish jarayonida o‘rta va uzoq muddatli rejalashtirish mexanizmlarini qo‘llash maqsadga muvofiq. Strategik rejalashtirish hududning kelgusi rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Bu esa budjet mablag‘larining qisqa muddatli emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga xizmat qilishini ta’minlaydi. Shular bilan birgalikda, mintaqada mahalliy budjet

samaradorligini oshirish imkoniyatlari, avvalo, budjet daromadlarini ko‘paytirish va mablag‘lardan oqilona foydalanish bilan bog‘liq. Buning uchun hududda tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va soliq bazasini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, budjet xarajatlarini natijadorlik tamoyili asosida rejalashtirish va ustuvor sohalarga yo‘naltirish budjet mablag‘larining samaradorligini oshiradi.

Mahalliy budjet imkoniyatlarini kengaytirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, budjet jarayonlarining shaffofligini ta’minlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ham muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, mahalliy moliya organlari xodimlarining malakasini oshirish, o‘rta va uzoq muddatli budjet rejalashtirishni takomillashtirish hamda mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish orqali hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash mumkin. Natijada, mahalliy budjet resurslaridan foydalanish sifati yaxshilanib, aholi farovonligini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi.

Mintaqada mahalliy budjet samaradorligini oshirish omillarining ta’sir yo‘nalishlari asosan quyidagi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy va boshqaruv sohalarida namoyon bo‘ladi:

- iqtisodiy ta’sir: tadbirkorlik faolligi va investitsiyalar hajmining oshishi natijasida ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘lami kengayadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi hamda hudud iqtisodiyoti rivojlanadi.

- moliyaviy ta’sir: mahalliy budjet daromadlari ko‘payib, budjetning moliyaviy mustaqilligi mustahkamlanadi hamda budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi ortadi.

- ijtimoiy ta’sir: ta’lim, sog‘liqni saqlash, kommunal xizmatlar va ijtimoiy himoya sohalarini moliyalashtirish imkoniyatlari kengayib, aholi turmush darajasi va farovonligi yaxshilanadi.

- boshqaruv ta’siri: budjet jarayonlari shaffofligi va hisobdorligi oshadi, jamoatchilik nazorati kuchayadi hamda davlat moliyasini boshqarish sifati yaxshilanadi.

- innovatsion ta’sir: raqamli texnologiyalar va zamonaviy moliyaviy boshqaruv usullarining joriy etilishi budjet tizimining tezkorligi va samaradorligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqada mahalliy budjet samaradorligini oshirish daromadlar bazasini kengaytirish, xarajatlarning natijadorligini ta’minlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, investitsiyalarni jalb qilish, malakali kadrlar tayyorlash va strategik rejalashtirish tizimini takomillashtirish kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur omillarning o‘zaro uyg‘unligi mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va hududlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, mahalliy budjet samaradorligini oshirish omillari mintaqaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, aholi farovonligini yuksaltirish va hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жданова О.В., Толмачёва О.В. Пути повышения эффективности расходов бюджета муниципального образования на современном этапе (на примере Байкаловского муниципального района Свердловской области). // Сборник докладов международной конференции «Весенние дни науки, ИнЭУ» 2025. - с. 670.
2. Филиппова Ю.А., Остапенко Д.В. Повышение эффективности бюджетного процесса на местном уровне. // Вестник Таганрогского института управления и экономики, № 1/2019. - с. 44.

3. Burxanov A.U., Qurbonov X.A. Hududlarda mahalliy budjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo‘llari (Qashqadaryo viloyati misolida). // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, №1, yanvar-fevral, 2018-yil. - 1-12 b.
4. Meyliyev O. Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ahamiyatini oshirish masalalari. (2021). Экономика и инновационные технологии, 4, 373-383. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.economics_and_innovative.11934
5. https://1economic.ru/